“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Raqamli muhitda emojilar mualliflik huquqining obyekti sifatida

Asliddin Lapasov,
Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bo‘lim boshlig‘i
TDYU tadqiqotchisi
e-mail: asliddinlapasov1995@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiya vositalarida keng qo‘llanilayotgan emojilarning mualliflik huquqi obyekti sifatidagi maqomi huquqiy jihatdan tahlil etiladi. Emojilar dastlab ifoda vositasi sifatida yaratilgan bo‘lsa-da, ularning estetik, grafik va badiiy qiymatga ega bo‘lgan ayrim shakllari zamonaviy mualliflik huquqi doirasida alohida e’tiborni talab qilmoqda. Maqolada emojilar dizaynining yaratilishi, tarqalishi va foydalanilishidagi huquqiy ziddiyatlar, shuningdek ularni mualliflik huquqi obyektiga aylantiruvchi belgilovchi mezonlar yoritilgan.Shuningdek, maqolada xalqaro amaliyotda emoji dizaynlari mualliflik huquqlari bilan qanday tartibda himoya qilinayotgani tahlil qilinib, O‘zbekiston Respublikasi mualliflik huquqiga oid qonunchiligi doirasida ushbu obyektlarni himoya qilish zarurati asoslab berilgan.Maqolada emoji dizayni ustidan mualliflik huquqlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziyalash va ulardan noqonuniy foydalanish hollatlari bo‘yicha dolzarb muammolar ko‘rib chiqilib, ularni hal etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Калит сўзлар. Mualliflik huquqi, raqamli muhit, intellektual mulk, grafika dizayni, huquqiy himoya, raqamli san’at, litsenziyalash, xalqaro huquq amaliyoti.

Аннотация. В данной статье анализируется правовой статус эмодзи, широко используемых в документообороте,с точки зрения их признания объектами авторского права.Несмотря на то, что эмодзи используются в качестве объектов использования, некоторые современные авторские права, имеющие эстетическую, графическую и иллюстративную ценность, требуют должного внимания. В статье рассматриваются правовые коллизии при создании, восстановлении и реставрации дизайнов эмодзи, критерии определения их превращения в объекты авторского права. Обоснована необходимость защиты данных объектов в рамках законодательства Республики Узбекистан об авторском праве. В статье рассматриваются проблемы производства в случаях регистрации, лицензирования и разрешения на использование авторских прав на рассматриваемый проект, а также предлагаются предложения и рекомендации по их решению.

Ключевые слова. Авторское право, охранная среда, интеллектуальная собственность, графический дизайн, правовая охрана, охранное искусство, лицензирование, юридическая практика.

Annotation. This article provides a legal analysis of the status of emojis, which are widely used in software collaboration, as objects of copyright. Although emojis are considered as objects of use, the document requires due attention to some modern copyrights that have aesthetic, graphic and figurative value. The article discusses the legal conflicts in the creation, restoration and restoration of emoji designs, the determining criteria for their transformation into objects of copyright.The need to protect these objects within the framework of the copyright legislation of the Republic of Uzbekistan is justified.The article considers the problems of production in cases of registration, licensing and permission to use copyright on the project in question, and proposes proposals and recommendations for their solution.

Keywords. Copyright, security environment, intellectual property, graphic design, legal protection, security art, licensing, legal practice

Mualliflik huquqi odatda ijodiy asarlarni, jumladan, san’at, adabiyot, musiqa, va dizayn sohalaridagi intellektual ijod mahsulotlarini himoya qiladi. Emojilar vizual ifoda vositasi sifatida grafik dizayn mahsuli hisoblanadi, shu sababli ular mualliflik huquqining obyekti bo‘lishi mumkin.

Biroq, emoji faqatgina oddiy belgi yoki ramz bo‘lsa, u mualliflik huquqi bilan himoya qilinmaydi. Faqatgina yetarlicha ijodiy elementlarga ega bo‘lgan noyob emojilar mualliflik huquqi subyekti sifatida ko‘rilishi mumkin. Masalan, original san’at asari tarzida chizilgan emoji yoki maxsus vizual uslubga ega bo‘lgan emoji mualliflik huquqi bilan himoyalanishi ehtimoli yuqori.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida emojilar bilan bog‘liq holatlar va muammolar ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Dunyo bo‘ylab ko‘plab advokatlar emojilar bilan bo‘g‘liq ishlarda ularning aniq qanday ma’no anglatishini topishga harakat qilmoqdalar. Ammo, bu sud zallarida allaqchon sudyalar uchun eng yirik muammolardan biri bo‘lib ulgurgan. Ular emojilarni dalil sifatida qabul qilish mumkinmi yoki mumkin emasligi haqidagi muhokamalarga aniq bir to‘xtamga kelishgani yo‘q.

Amerikalik olim Erik Goldmaning ta’kidlashicha emojilar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar holati kundan kunga oshib bormoqda. Uning hisob-kitoblariga qaraganda emojilar bilan bog‘liq huquq buzilish holatlari 2019-yilda 171 holatda, 2021-yilda 198 ta holatda qayd etilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 171 holatda qayd etilgan. Bu ko‘rsatkichlar Amerika Qo‘shma Shtatlarining birgina Texas shtatida qayd etilgan. Tasavvur qilib ko‘raylik, butun dunyo bo‘ylab bu kabi emojilar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar qanchadan qancha sodir bo‘layotgan ekan [1]. Qiziqarlisi shuki, dunyoda biror bir

davlatda emojilarni tartibga soladigan qonun hozirgacha ishlab chiqlmagan. Ammo, hozirda ko‘plab mamlakatlarda ular bilan bog‘liq huquqbuzarlikalrning ko‘payib ketayotganligi sababli qonunchilikka turli xil ko‘rinishdagi takliflar kelib tushmoqda.

Emojilar turli huquq sohalarida noto‘g‘ri tushunish yoki noto‘g‘ri talqini etilishi ham mumkin. Shu sababli ham ular bilan bo‘g‘liq tushunmovchiliklar ko‘payib ketmoqda. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab sudyalar uchun sud majlislarida emojilarni bilan qanday ishlash, ular bilan bog‘liq vaziyatlarga qanday baho berish bo‘yicha hech qanday yo‘riqnoma mavjud emas. Emojilar bilan bog‘liq huquq buzilish holatlarini huquqning ko‘plab sohasida uchratish mumkin. Asosan, jinoyatni amalga oshirish, pornagrafiyaga oid ma’lumotlarni tarqatish yoki bo‘lmasam pulga oid bo‘lgan munosbatlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda [2].

Emojilarni ba’zi bir olimlarning ta’biri bilan aytganda “universal til” deb bo‘lmaydi. Hozirda birgina kosortiumda 2823 ta turli xil emojilar mavjud bo‘lib, ular yuzlar ifodasini ko‘rsatadigan, ob-havo, ovqat, turli xil mashg‘ulotlar, qo‘lda ifoda etilgan turli xil belgilarni ifoda etishi mumkin. Emojilar bilan bog‘liq sud zallarida eng katta muammolardan biri bu ularning standart varianti yo‘qligidadir. Ya’ni hozirda dunyoda judayam ko‘p platformalar mavjud bo‘lib, ularning emojilari bir-biridan tubdan farq qiladi. “Apple”, “Sumsung”, “Microsoft” va “Google” platformalarida mavjud bo‘lgan emojilar bir-biridan ma’nosi va ko‘rinishi jihatidan ham tubdan farq qiladi. Fuqarolar tomonidan ishlatiladigan telefonlar rusumiga qarab emojilar ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, turli xil rusumdagi smartfonlar ishlatadigan fuqarolar o‘rtasida emojilar alamashilgan taqdirda Apple smartfonidan jo‘natilgan emoji Sumsung qurilmasida boshqacha ko‘rinish beradi [3]. Bu shuni anglatadiki, emojilarning dunyo bo‘ylab standart ko‘rinishi va variant yo‘q. Shu sababli ham hozrida sud zallarida sudyalar ularnining aniq qanday ma’no anglatishini bilish hamda tushunish masalasida ko‘plab qiyinchiliklarga va tushunmovchiliklarga duch kelishmoqda. Bu degani bitta emoji turli xil platformalarda turlicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, emojilar davlatlarning madaniyatiga qarab ham ular orqali anglashilgan ma’no ham bir-biridan tubdan farq qiladi. Misol uchun, “zo‘r” ma’nosini anglatadigan emoji ko‘plab mamlakatlarda shu jumladan Amerika Qo‘shma shtatlarida ham ijobiy ma’noni anglatsa, O‘rta sharq mamlakatlarida yuqorida keltirib o‘tilgan emoji salbiy ma’noni anglatadi. Yana shunday holatlardan biri kulib turgan “xursandchilik” ma’nosini anglatadigan emoji ko‘plab mamalkatlarda ijboiy ma’noda qabul qilinsa, Xitoyda esa bu emoji “kinoya” “kesatiq” ma’nosida ishlatiladi. Albatta, bu ma’lumotlarni bilib qo‘ygan yaxshi, chunki har bir millat madaniyati va urf-odatlari va huquq tizimini hisobga olib, fuqarolar ular bilan muloqatga kirishishsa, o‘rtada hech qanday tushunmovchilk yoki bahs-munozara yuzaga kelmaydi [4].

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Texnika rivojlangan sari emojilar bilan bog‘liq ishlar yanada murakkablashadi. Hozirgi davrdagi zamonaviy texnikalar yordamida emojilarni jonlantirish mumkin. Applening anemojisi yoki 3D emojisi foydalanuvchining yuz ifodalarini skanerlash orqali jo‘natuvchining yuz harakatlarini jonlantiradi. “Sumsung”ning AR qurilmasi esa foydalanuvchilarning yuz ifodasidan kelib chiqib, ularning yuziga o‘xshagan emojini yaratadi va uni foydalanuvchilar o‘z tanishlariga jo‘natish imkoni paydo bo‘ladi. Bugungi kundagi bu kabi emojilar inson yuz ifodasidan deyarli farq qilmaydi. Shunday ekan, ular inson erki va ularning ifodasini ko‘rsatar ekan nima uchun ular huquqiy oqibat keltirib chiqarmasligi kerak ekan. Emojilar judayam katta ta’sir kuchiga ega bo‘lib, insonlarning ichida qanday maqsad mavjud ekanini ko‘rsatish xususiyatiga egadir [5].

Hozirgi davrda emojilar bilan har qadamada duch kelish mumkin. Bugungi kundagi emojilar dastlabki avlodiga qaraganda xursandchilik, g‘am, jahl va shunga o‘xshash insonlarning hissiyotlarini ko‘rsata olishi bilan tubdan farq qiladi. O‘tgan bir necha yillar ichida emojilar bilan bog‘liq huquqbuzarliklar ancha ko‘payib qolgan. Asosan bu huquqbuzarliklar intellektual mulk huquqi, jinoyat huquqiga va shartnomaviy munosabatlarda ham juda ko‘plab uchramoqda. Shu bilan birgalikda ular yordamida ijtimoiy tarmoqlarda tuhmat qilish, aldash, kamsitish va shunga o‘xshagan insonlarning ma’naviy zarar ko‘rishiga olib keladigan holatlar ham talaygina. Bularning asosiy sababi emojilarni huquqiy jihatdan tartibga soladigan biror-bir qonun yoki normativ huquqiy hujjat qabul qilingan emas. Nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda ham ularning huquqiy jihatdan tartibga solish uchun faol harakatlar boshlanib ketgan. Shu bilan birgalikda, emojilardan turli xil maqsadlarda foydalanish huquqiy oqibat keltirib chiqarishi yoki aksincha chiqarmasligi haqidagi savollarga aniq javob ham yo‘q. Ko‘pchilik insonlar hatto ayrim huquqshunoslar ham emojilar shunchaki belgilar ekani, ular hech qanday huquqiy oqibat keltirib chiqarmasligi haqidagi fikrlarni ilgari suradilar. Vaholanki, huquq tizimi juda rivojlangan davlatlarning sud zallarida emojilar huquqbuzarliklar uchun asosiy dalillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda [6].

Emojilardan foydalanish kundan kunga oshib bormoqda. Olib borilgan tadqiqot natijalariga qaraganda ijtimoiy tarmoqlardagi 2 trillion 3 yuz ming elektron xabarlar emojilar orqali almashiladi. Internet foydalanuvchilarining 92 foiz o‘z xabarlarini emojilar bilan almashishadi. Albatta, bu ko‘rsatkichlar emojilarning ijtimoiy hayotimizda naqadar muhim ahamiyat kasb etayotganligidan darak beradi. Kundalik hayotda emojilardan o‘zaro suhbat jarayonlarida, ish masalasida va hattoki biznes qilish va uni amalga oshirish masalasida ham alamashadilar. Bir so‘z bilan aytganda, emojilar ijtimoiy hayotning har bir sohasiga kirib borgan. Olimlarning fikriga qaraganda, emojilar juda ham tez ommalashib borayotgan aloqa vositasi hisblanadi. O‘tgan davr mobaynida hech bir aloqa vositasi emojilar kabi tez va oson bizning ijtmoiy

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

hayotimizga kirib bormagan. Emojilarning mumkin bo‘lgan huquqiy ta’sirini har qanday tahlil qilishdagi dastlabki asosiy savol: emoji nima? Emoji – g‘oyani yoki hissiyotni ifodalash uchun matnli xabarlar va boshqa elektron aloqalarda ishlatiladigan kichik raqamli tasvir yoki belgidir [7].

Emojilar nima ekanligi to‘g‘risida umumiy fikrlar mavjud bo‘lsa-da, emojilar nimani anglatishi haqida ko‘proq noaniqliklar juda ko‘p. Ko‘rinib turgan noaniq xatti-harakatlardan niyat va mazmunni farqlash qonunda tez-tez uchraydigan jarayon bo‘lsa-da, emojilarning ma’nosini izohlash bir necha yo‘llar bilan aralashtirib yuboriladi. Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda emojini jo‘natuvchi va qabul qiluvchi aynan bir xil narsani ko‘rmasligi mumkin. Emojilar kodlar orqali yaratilganligi sababli emoji ko‘rinishi platformalarda bir xil bo‘lmasligi mumkin. Turli xil platformalar rang va shakldagi farqlarga olib kelishi mumkin. Natijada, bitta internet platformasida ko‘rilgan “sigir” emojisi, boshqa platformada ko‘rilganda, xuddi o‘sha platformadagidek emojidan ko‘rinmasligi mumkin. Amalda, turli platformalarda emojilarni qabul qilgan va uni jo‘natgan foydalanuvchilarning har ikkalasi bir xil ko‘rinishdagi emojini ko‘rayotganliklariga kafolat yo‘q.

Bu tasviriy ifoda bo‘lgani uchun, hatto tasvirlar bir xil bo‘lgan taqdirda ham, emojining asl ma’nosi uni ko‘rayotgan shaxsning qanday qabul qilishiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Chunki emojilarning “to‘g‘ridan-to‘g‘ri” ma’no anglashilmasligi mumkin. Emoji “ma’nosi” ga emoji bajaradigan funksiya sezilarli darajada ta’sir qiladi. Emojilar tez-tez matnning o‘rnini bosuvchi vosita sifatida ishlatiladi, masalan, “sevgi” yozuvi o‘rniga bir nechta yuraklarni jo‘natish orqali xuddi o‘sha ma’noni hattoki undan ham kuchli ma’noni bera oladi. Ba’zan kulgu yoki kinoya ifoda qilish uchun kulgichlar ishlatilganda judayam murakkab jarayon bo‘ladi. Masalan, “Uchrashuvni chinakamiga kutmoqdamiz” deb o‘qilgan tilning ma’nosi ko‘zni qamashtiruvchi smaylik bilan birga kelganida sezilarli darajada o‘zgaradi.

Bundan tashqari emojilar ba’zi hollarda xushmuomalalik sifatida ishlatilishi ham mumkin. Emojilar yoqtirish oddiy tan olishdan tortib, tasdiqlash va qo‘llab-quvvatlashga qadar hamma narsani anglata oladi. Emojilar, shuningdek, tushunilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni tushuntirish uchun ham ajoyib vosita hisoblanadi. Masalan, “boshqa bir muddatni o‘tkazib yubormang” deya “xursandchilik” ma’nosini anglatadigan buyruq ohangidagi gapga jilmaygan emojini qo‘shib aytish orqali suhbatdoshga yaqinlashish, do‘stonalik, xushmuomilalikni ifodalash kabi ma’nolarni ham nazarda tutish mumkin. Shuningdek, emojilar ijtimoiy tarmoqlarda suhbatdoshlar o‘rtasida kechadigan o‘zaro suhbatning tushunarli va ta’sirichan bo‘lishiga juda katta hissa qo‘shadi [8].

Emojilar bilan bog‘liq yana yirik muammolardan biri ularning davlatlarning an`anlari, urf-odatlari, yashash tarzi va madaniyatiga qarab turli xil ma’nolarni anglatishidir. Ya’ni bir emoji bir davlatda boshqa ma’noni anglatsa boshqalarida umuman boshqa ma’no

anglatishi mumkin. Bu ma’noning o‘zgarishi o‘sha davlatlarning asosan madaniyatiga borib taqaladi. Asosan bu farqlar sharq va g‘arb davlatlarida emojilarning ma’nosi o‘zgarishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida yuzida maskali emoji “o‘g‘irlik” ma’nosini anglatsa, Yaponiyada esa aksincha, “kasallik” ma’nosini anglatadi. Bu degani boshqa davlat fuqarolari bilan ijtimoiy tarmoqlarda o‘zaro aloqlarga kirishayotganlarida ularning madaniyati va albatta emojilarning o‘sha davlatda qanday ma’noda qo‘llanilishini bilish lozim. Aks holada, suhbatdoshlar o‘rtasida ko‘plab tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin [9]. Shunday misollardan yana biri bu bosh bormoqning yuqoriga qaratilgan emojisi “zo‘r” ma’nosini anglatadigan ko‘plab mamlakatlarda ijobiy ma’noda ya’ni “maqtash”, “maqullash” kabi ma’nolarda nazarda tutsa, Xitoyda esa aksincha umuman boshqa ma’noda ya’ni “meni yolg‘iz qoldiring” yoki “uzoqroq turing” kabi ma’nolarda qo‘llaniladi. Ko‘rib turganimizdek, emojilar bir xil ko‘rinishga ega bo‘lsada, davlatlarda ular turli xil ma’nolarni anglatadi. Har bir kishi o‘zga bir shaxs bilan emojilar orqali axborot almashiyotganda ularning qanday ma’noni anglatishini bilishlari lozim.

Emojilarni yuboruvchi va ularni qabul qilib oluvchi suhbatdoshlar o‘rtasidagi emojilar bir xil ko‘rinishda bo‘lsa ham, ularninig ma’nosi shunda ham noaniq bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘plab emojilar “iltijo”, “tinchlik”, “o‘tinch” va “ibodat” ma’nolarida ishlatiladi. Ko‘rinib turibdiki, birgina emoji bir nechta ma’nolarni anglatishi mumkin. Agar emojilar bilan bog‘liq muammoli vaziyat yuzaga kelib qolgan taqdirda ularni yuboruvchi tomon aynan qanday ma’nonini nazarda tutganligini bilish judayam qiyin albatta. Shuday ko‘p ma’noga ega bo‘lgan emojilarning ko‘pligi vaziyatni yanada chigallashtirishi mumkin [10].

Qonun ko‘pincha insonlarning asl niyatini tushunishni va noaniq tilni izohlashni talab qiladi, emojilardan foydalanishning ko‘payishi qo‘shimcha huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki emojilarning ko‘pligi foydalanuvchilarning ularning aynan qaysi ma’nosini nazarda tutganligin aniqlashaga qiyinchilik tug‘diradi. Hissiyot yoki ruhiy holatni ifoda etish uchun juda ko‘p emojilar ishlatilganligi sababli, ushbu ramzlardan foydalanish natijasida potentsial ta’sir ko‘rsatadigan qonun sohalari niyat va ruhiy holat eng ko‘p muhokama qilinadigan joylar bo‘lishi ajablanarli emas. Har bir qonunchilik sohasida qilingan huquqbuzarlik uchun aslida javobgar shaxsning niyati qanday ekanligi eng yuqori o‘rinlardan biri hisoblanadi. Emojilar esa insonlarning miyasida aslida qanday niyati bor ekanligini ko‘rsatuvchi judayam kuchli vosita hisoblanadi [11].

Jinoyat qonunchiligida emojidan foydalanish zo‘ravonlik tahdidi sifatida talqin qilingan bir nechta holatlar bo‘lgan. Ushbu holatlarning aksariyatida emoji tahdidni ko‘rsatuvchi asosiy vositasifatida kelgan. So‘nggi holatlarda, dunyoning ko‘plab huquq sohasi rivojlangan davlatlarda emoji muloqotdan faqat ilova

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

matnisiz foydalanish jismoniy tahdidni qo‘llab-quvvatlash uchun yetarli deb topildi. Masalan, musht, keyin ko‘rsatkich barmoq bilan tez yordam mashinasiga ishora qiluvchi emojilarning o‘zaro kombinatsiyasi kishilar uchun jisomoniy tahdid, biri kishi urish, zo‘ravinlik qilish uchun yetarli tahdid deb baholandi. Bu emojilar kombinatsiyasida hech qanday matnli xabar yo‘q ammo unda aybdor deb topish uchun yetarli asos bor deya topildi. Ushbu keltirilgan emojilar guruhidan hosil bo‘lgan umumiy ma’no jismoniy zo‘ravonlik qilish, urish uchun tahdid deb baholangan [12].

Emojilar ko‘pchilik foydalanuvchilar tomonidan ko‘p holatlarda hatto “hazil” sifatida foydalangan bo‘lsa ham, bunday emojilarni ishlatish, jinsiy yoki romantik faoliyat bilan shug‘ullanish uchun taklifnoma yoki bosim sifatida talqin qilinishi ehtimoliga ega. Jinsiy tasvirlardan tashqari, jinsiy orientatsiya, irq, millat va nogironlikning kamsitilishini targi`ib qiluvchi emojilar ham mavjud. Hatto jilmayib turgan jilmayish kabi bejirim tasvirni ham jinsiy harakatlar yoki “ichidagi hazil” ga ayyor havola sifatida talqin qilish yoki noto‘g‘ri talqin qilish mumkin. Emojialar ham kamsitish imkoniyatlarini murakkablashtiradi [13]. 2019-yil oktyabr oyi oxirida emojii tasvirlarining aksariyatini yaratgan va standartlashtirgan tashkilot – Unicode konsortsiumi yangi neytral emojialarning to‘plamini chiqardi. Bunday tasvirlar odamlarni xohlaganicha aniqlash uchun ommaviy tan olinishi oshganligini tasdiqlasa-da, ular noto‘g‘ri foydalanish va ta’qib qilish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi.

Emojini ishlatish istalmagan huquqbuzarlik yoki boshqa noqulay vaziyatlarga olib kelishi mumkin. Tildan farqli o‘laroq, menejerlar va boshqa biznes mutaxassislari uzoq vaqtdan beri o‘z so‘zlarini sinchkovlik bilan tanlashga o‘rgatilgan, emojilarni qisqa fursatda e`tiborga olib hamda ulardan foydalanishning umuman iloji yo‘q. Bundan tashqari, so‘zlar “tom ma’noda” ma’noga ega bo‘lishi mumkin, ammo tasviriy ifoda sifatida emojilar yo‘q. Ular Pikassoning rasmidan ko‘ra emas va shuning uchun, ehtimol, haqiqiy tilga qaraganda noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin [14].

Shartnoma bo‘yicha muzokaralar sohasida emojilarni ishlatish eng muammoli bo‘lishi mumkin. Oddiy odamlar shartnomalarni ikki tomon imzolagan yozma hujjatlar deb o‘ylashga odatlangan bo‘lsalarda, tajribali mutaxssislar ularning qanday muammoli vaziyatlarga olib kelishi mumkin ekanligini juda yaxshi bilishadi. Aynan “rasmiy” kelishuvni amalga oshirishdan oldingi davrda emojidan foydalanish yuridik ta’sirning eng katta xavfini keltirib chiqaradi. Aniq til bo‘lmasa, almashinuv tomonlar o‘rtasida kelishuvni tashkil etadimi yoki yo‘qligini aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda emoji yoki kulgichning qo‘shilishi shartnoma tuzishda muvozanatni to‘xtatish uchun yetarli bo‘ladi [15].

Shartnoma mavjudmi yoki yo‘qmi, tomonlarning shartnoma tuzish “obyektiv niyatiga” bog‘liq. Hatto bir tomonning “subektiv” niyati faqat muzokaralar olib borishni maqsad qilgan bo‘lsa ham, sud agar-bu tomonlar savdolashish niyati bor deb taxmin qilsa,

shartnoma mavjud deb hisoblashi mumkin. “Bosh barmog‘ingizni ko‘tarish” belgisi, “qo‘l berib ko‘rish” yoki “OK” ni ko‘rsatadigan aylana barmoqlar kabi emojilani qo‘shish, jo‘natuvchining shartnomaga rozi ekanligidan darak beradi.

O‘zlarini emoji bilan noto‘g‘ri aloqa qilish xavfidan himoya qilmoqchi bo‘lgan korxonalar, ishbilarmonlar ko‘plab yechimlarga ega. Eng oddiy yechimlardan biri emojilardan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotganda umuman foydalanmaslikdir. Lekin, emojilar barcha ijtimoiy tarmoq foydlanuvchilarining sevimli aloqa vositlaridan biri bo‘lib ulgurgan. Bunday vaziyatlar uchun eng yaxshi yechimlardan biri emojilar inson erki-irodasini va ularning aslida niyati qanday ekanligini ko‘rastuvchi vosita bo‘lganligi sababli ulardan shunchaki hazil sifatida emas balki jiddiy yondashgan holda foydalanish tavsiya etiladi [16].

Emojilar bilan bog‘liq eng asosiy muammolardan biri ularning barcha platformda standart shakilda yo‘qligidadir. Ya’ni hozirda mavjud bo‘lgan barcha platformada emojilar turli xil shakil va ko‘rinishlarda paydo bo‘lmoqda. Tabbiiyki, bu ko‘plab tushunmovchiliklarini keltirib chiqaradi.

Emoji tasvirlarining xilma-xilligi texnologik jihatdan talab qilinmaydi va shu bilan birgalikda foydalanuvchilarga ham hech qanday foyda keltirmaydi. Buning o‘rniga, ehtimol emojilarni himoya qilish uchun intellektual mulk to‘g‘risida platformalarning tashvishlarini aks ettiradi. Bu esa juda ko‘plab oldini olib bo‘lmas chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday qilib, intellektual mulk bizning bir-birimiz bilan muloqot qilishimizga halaqit berishi mumkin. Dissertatsiyada shunday tushunmovchiliklarning oldini qanday qilib olish va ularni bartarf etishn yo‘llari muhokama qilinadi [17].

Emoji bilan bog‘liq huquqiy masalalar odatda ikkita keng toifaga bo‘linadi. Birinchidan, emojilar sud tomonidan izohlashni talab qiladigan tushunmovchiliklarga keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, emojilar intellektual mulk (IP) to‘g‘risidagi qonunlar himoya qilishi to‘g‘risida savollarni keltirib chiqarishi mumkin.

Emojilar bir nechta g‘ayrioddiy texnik va ijtimoiy xususiyatlarga ega va ular ko‘plab tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, emojilarda aniq lug‘atlarda keltirilgan ta’rifi yoki o‘rnatilgan grammatik qoidasi yo‘q [18].

Biroq, eng muhimi, emoji yuboruvchilar va qabul qiluvchilar har doim ham bir xil emojini ko‘rishmaydi. Ya’ni emojini yuboruvchi yuborgan belgilari uni qabul qiluvchida xuddi uni yuborgan kishidagidek bir xil bo‘lmasligi mumkin. Vaholanki, buni qabul qiluvchi va yuboruvchilarning aksariyati bilishmaydi. Haqiqatan ham, agar ular turli xil qurilmalar, dasturiy ta’minot dasturlari yoki operatsion tizimlar, qisqa qilib aytganda turli xil platformalarda muloqot qilsalar jo‘natuvchilar va qabul qiluvchilar deyarli bir xil bo‘lmagan tasvirlar ya’ni emojilarni ko‘rishadi. Tafovutlar kichik va ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin, ammo katta tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Platformalarning emoji tasvirlarining xilma-xilligi emojilar uchun IP (intellektual mulk) huquqi himoyasi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Shaxsiy emojilar ko‘pincha mualliflik huquqi va savdo belgilarini himoya qilish huquqiga ega raqib platformalarini bir xil emoji yaratishga to‘sqinlik qiladi, bu esa tasvirlar va platformalararo tasvirlarning xilma-xilligining vujudga kelishiga sabab bo‘lib qolmoqda [19].

Shunday qilib, emojilar uchun intellektual mulk huquqi (IP) himoyasi asosan platformalarni joriy etishga majbur qiladi. Bu esa emoji tasvirlariga keraksiz o‘zgartirishlar kiritishga majbur qiladi. O‘z navbatida bunday o‘zgartirishlar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining bir-biri bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Bunday vaziyatni hal qilish uchun bir necha yo‘llar mavjud, jumladan emojilar uchun intellektual mulk (IP) doirasini cheklash lozim. Bundan tashqari platformalarni bir xil emojilarni yaratish uchun rag‘batlantirish ham eng asosiy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Unicodening say-harakatlariga qaramay, Unicodekodli emojilar qisman standartlashtirilgan. Unicode emojini kodlashda ushbu emoji uchun “vakili glif”ni taqdim etadi (oq-qora matnli taqdimotda). Bu platformalar glifni (belgini) xohlagan rang bilan amalga oshirishi mumkin. Shunday qilib, har bir platformaning Unicodecoded dasturini amalga oshirish emojilar ularning o‘ziga xos uslubini va boshqa tanlovlarini aks ettiradi. Bu platformalararo tasvirlarning xilma-xilligiga olib keladi [20].

Odamlar o‘zlarining bir xil belgilarini ko‘radigan oddiy matndan farqli o‘laroq, platformalar emojilarni samarali tarjima qiladi: bu emoji tanlagan jo‘natuvchi qabul qiluvchining platformasiga tarjima qilinadi. Biror bir kishi tomonidan yuboriladigan emoji grafigi boshqa bir kishining boshqa qurilmadan foydalanishi ularning ko‘rinishi va ma’nosida ancha farq qilishi mumkin. Platformalarda tasvirlangan xilma-xillikning tasviri sifatida ushbu jadvalda sigir emojisining turli xil platformalarda qanday qilib ko‘rinishi keltirib o‘tilgan.

Uzoq chap belgi sigir shaklining Unicodekodli ko‘rinishidir. Aksariyat Unicode kodli emojilarda rang ko‘rsatilmagan bo‘ladi. Boshqa belgilar sakkiz xil platformalarning dasturlarini namoyish etadi.

Platformalar muntazam ravishda o‘zlarining foydalanuvchilariga Unicode kodli bo‘lmagan emojilarni taklif qilishadi. Unicode bo‘lmagan ba’zi emojilar Unicode kodli emojilarga o‘xshash yoki bir xil ko‘rinadi. emojilar; Unicode bo‘lmagan boshqa emojilarda ko‘rinishi bir xil bo‘lgan Unicode kodli emojilar yo‘q. Hozirgi davrda 3000 dan ortiq Unicode kodli emojilar mavjud. Unicode bo‘lmagan emojilar olami albatta juda katta.

Unicode bo‘lmagan emojilar ikkita asosiy shaklga ega. Birinchisi, virtual olamda uchrashi mumkin bo‘lgan emojilardir. Bu ko‘pincha “stikerlar” yoki ba’zan “buyurtma qilingan emoji” deb nomlanadi. Bunga misollar qilib Facebook, Snapchat va Twitches hamda

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

boshqa platformalarda mavjud bo‘lgan emojilarni ko‘rsatish mumkin. Ikkinchidan, foydalanuvchilar o‘zlari bilan muloqot qilishlariga imkon beradigan dasturiy ta’minot dasturlarini o‘rnatishi mumkin. Unicode emoji-ni ushbu dasturning boshqa foydalanuvchilari qayerda bo‘lishidan qat’i nazar ko‘rishlari mumkin. Masalan, Bitmoji dasturi foydalanuvchilarga “shaxsiylashtirilgan” avatarlari bilan birlashtirilgan ko‘plab platformalarda ishlaydigan emojilarni ni yaratishga imkon beradi [21].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, virtual makonda emojilar mualliflik huquqining obyekti bo‘lishi mumkinmi, degan savol huquqiy jihatdan dolzarb va murakkab masalalardan biridir. Emojilar oddiy belgilar yoki piktogrammalar sifatida yaratilgan bo‘lsa, odatda mualliflik huquqi bilan himoyalanmaydi. Biroq, agar emoji yetarlicha ijodiy elementlarga ega bo‘lsa va o‘ziga xos dizaynga ega bo‘lsa, u mualliflik huquqi subyekti sifatida himoyalanishi mumkin.

Shuningdek, emoji Unicode konsorsiumi tomonidan standartlashtirilgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi umumiy foydalanish uchun ochiq sanaladi. Ammo ba’zi kompaniyalar (masalan, Apple, Facebook) o‘ziga xos emoji dizaynlarini ishlab chiqib, ularni mualliflik huquqi yoki savdo belgisi sifatida himoya qilishga harakat qiladi. Shu sababli, mualliflik huquqi bilan bog‘liq nizolar odatda brendlangan yoki maxsus dizaynga ega bo‘lgan emojilar atrofida yuzaga keladi.

Virtual makonda mualliflik huquqining buzilishi asosan tijorat maqsadida ruxsatsiz foydalanish orqali sodir bo‘ladi. Shu bois, emoji dizayni yaratishda va undan foydalanishda mualliflik huquqi talablari va xalqaro standartlar hisobga olinishi lozim. Kelajakda texnologik rivojlanish va raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi emoji huquqiy maqomini yanada aniqroq belgilash zaruratini keltirib chiqarishi mumkin.

References:

1. For purposes of this portion of the paper, the term “emoji” is sometimes used to describe not only a single character face or object, but also its “predecessor,” the emoticon, which consists of several keyboard characters.

2. Browning and Seale, More than Words The Evidentiary Value of Emoji, 57 No. 10 DRI For Def. at p. 1.

3. Tanya M. Kiatkulpiboone and Andrea W. Paris, Emoji and Deciphering Intent in the Digital Age, 59-JUN Orange County Law 42, 43 (June 2017).

4. Joyce R. Rosenberg, Substance and Style, 87-APR J. Kan. B.A. 37 (April 2018); See also, Eric Goldman, Emojis and the Law, 93 Wash. L. Rev. 1227, 1263-1264 (October 2018).

5. Browning and Seale, More than Words The Evidentiary Value of Emoji, 57 No. 10 DRI For Def. at p. 1.

6. Browning and Seale, More than Words The Evidentiary Value of Emoji, 57 No. 10 DRI For Def. at p. 3.

7. Benjamin Weiser, At Silk Road Trial, Lawyers Fight to Include Evidence They Call Vital: Emoji, The New York Times (January 28, 2015), debatingemojis. html. The emoji was not included in the opinion; and thus, it is this author’s assumption of what was used.

8. Janssen, Hearsay in the Smiley Face: Analyzing the Use of Emojis as Evidence, 49 St. Mary’s L.J. at 717.

9. Elizabeth Kirley and Marilyn McMahon, The Emoji Factor: Humanizing the Emerging Law of Digital Speech, 85 Tenn. L. Rev. 517, 551 (Winter 2018).

10. Elizabeth Kirley and Marilyn McMahon, The Emoji Factor: Humanizing the Emerging Law of Digital Speech, 85 Tenn. L. Rev. 517, 551 (Winter 2018).

11. Id.; See also, Browning and Seale, More than Words The Evidentiary Value of Emoji, 57 No. 10 DRI For Def. at p.5.

12. The emojis were not contained in the court’s opinion; and thus, those included hereinabove may not be the actual images or number of emojis used by the defendant

13. Jonathan Geneus, Emoji: The Caricatured Lawsuit, 16 Colo. Tech. L.J. 431 (2018).

14. Feinn, Lily “What Does The Clapping Hands Emoji Mean On Twitter? It Goes Back Much Further Than Its Internet Usage” (March 10, 2017) https://www.bustle.com/p/what-does-the-clapping-hands-emoji-mean-on-twitter-it-goesback-much-further-than-its-internet-usage-43594.

15. Browning and Seale, More than Words The Evidentiary Value of Emoji, 57 No. 10 DRI For Def. at p. 5.

16. Manning and Rockwood, Emoticons and Emojis, Hazards to Be Aware of in Discovery, 317-APR N.J. Law. at 70

17. Kirley and McMahon, The Emoji Factor: Humanizing the Emerging Law of Digital Speech, 85 Tenn. L. Rev. At 553.

18. Geneus, Emoji: The Caricatured Lawsuit, 16 Colo. Tech. L.J. at 445; See also, Kirley and McMahon, The Emoji Factor: Humanizing the Emerging Law of Digital Speech, 85 Tenn. L. Rev. at 552-553.

19. Kirley and McMahon, The Emoji Factor: Humanizing the Emerging Law of Digital Speech, 85 Tenn. L. Rev. At 552.

20. See also, Browning and Seale, More than Words The Evidentiary Value of Emoji, 57 No. 10 DRI For Def. at p. 7.

21. Kiatkulpiboone and Paris, Emoji and Deciphering Intent in the Digital Age, 59-JUN Orange County Law at 46.